



IBROYIM YUSUPOVNING IJODINING G'OYAVIY VA BADIY XUSUSIYATLARI

Kuanishbayeva Setora Muzaffar qizi
Nukus davlat pedagogika instituti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili
yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ibroyim Yusupovning adabiy merosining g'oyaviy va badiiy jihatlari tahlil etiladi. Yusupovning asarlarida insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'zgarishlar va ijtimoiy adolat kabi muhim mavzular ko'tarilgan. Shuningdek, uning asarlaridagi badiiy uslub, obrazlar yaratish mahorati va tasvirlash texnikalari yoritiladi. Maqola Yusupov ijodining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rnini, uning asarlaridagi asosiy g'oyalar va ularning badiiy tasviridagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Ibroyim Yusupov, adabiyot, g'oyaviy xususiyatlar, badiiy uslub, tasvir, obrazlar, jamiyat.

Kirish: O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov qardosh Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani hududidagi Azot ovulida 1929-yilning 5-may kuni tavallud topgan. O'rta maktabni tugallab, Qoraqalpog'iston pedagogika institutiga o'qishga kirgan va uni 1949-yilda muvaffaqiyatli bitirgan. Talabalik yillarida yaqqol namoyon bo'lgan uning izlanuvchanligi, ijodga moyilligidan xabardor institut rahbariyati Ibroyimni shu dargohda o'qituvchi sifatida ishga olib qoladi. I. Yusupov 1961-yilgacha mazkur institutda talabalarga til va adabiyot ilmidan saboq beradi. 1961–1962-yillarda u Qoraqalpog'istonning markaziy adabiy nashri bo'lmish «Amudaryo» jurnalining bosh muharriri vazifasini bajaradi. 1962–1965-yillarda esa respublikaning Tarix, til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida avval ilmiy xodim, keyin sektor mudiri bo'lib

ishlaydi. Ibroyim Yusupov respublika adabiy jamoatchiligi o'rtasida qozongan obro'-e'tibori tufayli uzoq yillar davomida (1965– 1980) Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qiladi. Ayni shu yillari qoraqalpoq milliy adabiyotining barcha yo'nalishlarida diqqatga loyiq asarlar yaratiladi, yozuvchilar safiga yosh, umidli ijodkorlar kelib qo'shiladi. I. Yusupov 1980–1985-yillarda respublikaning markaziy gazetasida bosh muharrir vazifasini bajargan bo'lsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan to 2000-yilgacha Qoraqalpog'iston Ma'naviyat va ma'rifat markazining raisi lavozimida fidokorona xizmat qildi. Ibroyim Yusupovning dastlabki she'rlari o'tgan asrning 40-yillari o'rtalaridan – u institutda o'qib yurgan kezlariyoq e'lon qilina boshlagan. Shundan buyon ijodkorning 30 dan ortiq she'riy va nasriy kitoblari o'quvchilar qo'liga yetib bordi.

Adabiyotlar tahlili



Ibroym Yusupovning ijodini tahlil qilishda bir qator muhim manbalar mavjud. Quyida shu manbalar asosida uning badiiy merosi haqida to'liqroq ma'lumot keltiraman. Ibroym Yusupovning "Cho'l to'rg'ayi" asari (1972) adabiyotshunoslikda katta o'rin egallaydi. Ushbu asar, uning adabiyotdagi o'ziga xos uslubi va badiiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Yusupov o'z asarida o'zbek xalqining urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini va ijtimoiy hayotini tasvirlab, uning zamonaviy adabiyotga qo'shgan hissasini ta'kidlaydi. Yusupovning badiiy tasvirlash uslubi, asaridagi obrazlar va ijtimoiy masalalarni yoritishdagi mahorati o'ziga xosdir [1].

Yusupovning ijodi haqida yanada kengroq tushuncha olish uchun "Adabiyotshunoslik lug'ati" (2013) manbasidan foydalanish mumkin. Ushbu lug'atda adabiyotshunoslik faniga oid ko'plab atamalar va tushunchalar to'plangan bo'lib, Yusupovning asarlari va uning ijodi ham alohida o'rganilgan. Bu manba uning badiiy va g'oyaviy merosiga oid tafsilotlarni keltiradi va Yusupovning o'ziga xosligini yoritadi [2]. Shuningdek, Yusupovning adabiyotdagi o'rni va hayoti haqida "Русский Шекспир | Skonchalsya narodniy poet Uzbekistana i Karakalpakstana Ibragim Yusupov" nomli maqola ham mavjud. Ushbu maqolada, Yusupovning o'zbek va qoraqalpoq adabiyotidagi roli va uning xalq orasidagi mashhurligi haqida ma'lumot berilgan. Yusupovning asarlari va ular orqali ifodalangan g'oyalar, ijtimoiy masalalar haqida tahlil qilinadi [3].

Yuqoridagi manbalarga qo'shimcha ravishda, Yusupovning o'ziga berilgan "O'zbekiston Qahramoni" unvoni ham uning adabiyotdagi o'rni va ijtimoiy roli haqida ma'lumot beradi. 2004-yilda berilgan bu unvon, Yusupovning jamiyatdagi yuksak hurmatini va uning asarlariga bo'lgan e'tiborni yanada mustahkamlaydi [4]. Shuningdek, J. Hakimniyazov, I. Seytbaev va R. Ismetovning "Qoraqalpog'iston hududidagi ziyoratgohlar" (2023) asari ham Yusupovning ijodi bilan bog'liq muhim ma'lumotlar keltiradi. Bu manbada, Yusupovning ijodi va uning Qoraqalpog'iston adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida fikrlar mavjud. Yusupovning asarlari, nafaqat adabiyotshunoslar, balki ijtimoiy va madaniy tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganiladi [5]. Shu tarzda, yuqoridagi manbalar orqali Yusupovning ijodi, uning badiiy va g'oyaviy xususiyatlari to'g'risida kengroq ma'lumot olish mumkin.

Tahlil va Natijalar

Ibraim Yusupov 1929 yil 5 mayda Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani Azot ovulida tug'ilgan. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri (1975). O'zbekiston Qahramoni (2004). Qoraqalpog'iston pedagogika institutini tamomlagan (1949). «Aktrisaning ikboli» (1967), «Umrbek laqqi» (1971), «Mangu buloq» dramalari, «Ajiniyoz» librettosi muallifi. «Buloqlar qaynaydi» (1960), «Oltin



qirg'och» (1962), «Dala armonlari» (1967), «Cho'l to'rg'ayi» (1972), «Qora tol» (1988) va boshqa asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. Jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan («Mangu buloq», 1986). Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti laureati (1974).

Qirg'izistonning buyuk adibi Chingiz Aytmatov Ibroyim Yusupovning ijodini shunday baholagan edi: “Men qoraqalpoq xalqini va uning buyuk o'g'luni Ibroyim Yusupovni sevaman. She'riyat juda murakkab narsa. Uni qaysi tilda yozilgan bo'lsa, o'sha tilda his etish kerak. Men Ibroyim Yusupov she'rlarining tarjimalarini o'qiyman. Bu insonning she'rlari hatto tarjimada ham hayratga soladi va zavqlantiradi. Afsuski, ularni asliyatda o'qiy olmayman...Agar Ibroyim Yusupov o'z omadini nasrda sinab ko'rsa, bu inson nimalarga qodirligini Tangrigina bilgan bo'lardi. Agar qachonlardir u bunga azm qilsa, buyuk daholar ernest Xeminguey va Robindranat Tagor kabi yuksaklarga parvoz qila olardi”. Boshqa atoqli adiblar ham Ibroyim Yusupovning ijodini juda yuqori baholashgan. Dog'istonlik mashhur Rasul Hamzatov uni “qalblarni davolovchi shoir”, Qaysin Quliev “Navoiy va Mahtumquli bilan bir qatorda turk tilli xalqlar she'riyatining bashoratchisi” sifatida e'tirof etgan. Qoraqalpog'iston Respublikasining xalq yozuvchisi Orazbay Abdiraxmanov esa “YUSupovning she'riyati – XX asrning Berdaq” deb hisoblagan.

Shoir esa o'ziga shunday ta'rif bergandi:

Men duragay bir butoqda unganman:

Navoiy va Pushkin ustoz, ilhomchim.

Qaynab turgan qonim bilan ummonman,

Men Berdaqning sof qonidan bir tomchi.

Ammo uning ijod cho'qqilari sari yo'li ravon bo'lmagan. SHoirning to'ng'ich qizi, kimyogar Shahzoda Ibroyimovnaning xotirlashicha, bobolari YUSup oxun Buxoro madrasida ta'lim olgan, birgina Qoraqalpog'istondagina emas, o'lkada taniqli ulamolardan bo'lgan. Dindorligi uchungina u o'tgan asrning 30-yillari boshida qatag'on qilinib, Turkmanistonda darbadarlikda vafot etgan. Ma'murlar ulamoni surgun qilish bilan chegaralanmasdan, mol-mulkini musodara qilishgan, bu oilaning o'z vaqtida ko'rkam hisoblangan uylarini traktor bilan buzib tashlashgan. Yusup oxunning rafiqasi Xonbibi bolalari bilan erto'lada yashashga majbur bo'lganlar. Shunday ham tirikchilik o'tkazish o'ta mashaqqatli bo'lgan o'sha davrda “xalq dushmani”ning oilasi – ona va uning uch farzandi qanday uqubatlarga duchor bo'lganliklarini ortiqcha ta'riflashga hojat bo'lmasa kerak. Otasi vafot etganida Ibroyim uch yashar bolakay bo'lgan. Turmush mashaqqatlariga qaramasdan u juda



yoshligidan otasidan asrab qolingani kitoblarni mutolaa qilar, bir yo'la arab tilini o'rgangan edi¹.

Ibroyim onasiga tirgak bo'lish uchun 13 yoshidan ishlay boshlagan. Bilimdonligi, tirishqoqligi uchun unga Chimboy tumanidagi jamoa xo'jaligida tabelchilik qilishni ishonib topshirishgan. Bu xizmati uchun u oyiga ikki kilogramm bug'doy olardi. O'sha yillari Nukusda birinchi pedagogika instituti tashkil etilgandan keyin talabalar etishmasligi sababli o'rta maktabni tugallamaganlarni ham imtihonsiz o'qishga qabul qilishgan. Ibroyim bilan birga majburlab talabalikka qabul qilingan sinfidagi o'qimishliroq o'smirlarning hammasi ko'p o'tmay institutdan qochib ketishgan. Birgina u ta'limini davom ettirgan va yigirma yoshligida shu oliy ta'lim muassasida talabalarga dars bera boshlagan. Ayni paytda Qoraqalpog'iston radiosida diktorlik ham qilgan. Bu yillari g'animlar otasining qatag'on qilinganligini yashirgan, degan bahona bilan Ibroyimning oyog'idan chalishga ham harakat qilib ko'rishgan. Ammo olib borilgan tekshirishlar natijasida bu g'irt tuhmat ekanligi, tarjimai holida otasi bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni aniq bayon etganligi aniqlangan. Shunga qaramasdan yosh muallimga qattiq xayfsan e'lon qilishgan.

— Otamiz o'sha davr siyosatini yaxshi bilar va juda ehtiyotkor bo'lardilar, — hikoya qiladi Shahzoda Yusupova. — Oilamizda rahbarlarni tilga olish umuman ma'n etilgan edi. Otamiz pedagogika institutida domlalikdan keyin “Amudaryo” jurnalining bosh muharriri, respublika Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limida ilmiy xodim vazifalarida ishlardi, birin-ketin kitoblari chiqa boshlagani, durustgina qalam haqi olib turganiga qaramay, juda kamtarona turmush kechirardik. Yaxshi yodimda, 1950-yillarning oxirida Toshkentga markaziy gazeta muxbiri sifatida yuborilgan (aslida Moskvada nufuzli rahbarlik lavozimidan haydalib, surgun qilingan) taniqli yozuvchi Konstantin Simonov uyimizga mehmon bo'lib kelganida pal'tosini osib qo'yish uchun javon ham, hatto ilgak ham topolmay biroz vaqt alanglab turgan, otam buni payqagach, kulimsirab uning ust kiyimini bo'yra ustiga taxlab qo'yilgan ko'rpalar tepasiga tashlab qo'ygandi.

Boshqa bir safar noqulay ob-havo tufayli Moskvadan Qirg'izistonga uchib kelayotgan samolyot Nukusga qo'nganida, o'sha paytda Qoraqalpog'istonning birinchi rahbari Qallibek Kamolov yo'lovchilar orasida bo'lgan CHingiz Aytmatovni kutib olgan va hukumat qarorgohiga taklif etgan. Ammo u otamizni o'z qadrini hisoblab, bizning uyimizga olib borishini iltimos qilgan.

Xulosa

¹ <https://yuz.uz/uz/news/ibroyim-yusupovni-anglamay-turib>



Ibroyim Yusupovning ijodi o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida ijtimoiy, ma'naviy va psixologik masalalar chuqur tahlil qilinadi, shuningdek, milliy qadriyatlar va inson huquqlari kabi zamonaviy g'oyalar ham keng yoritiladi. Yusupovning "Cho'l to'rg'ayi" kabi asarlari uning adabiyotdagi yuksak ustaligi va tasvirlash uslubi orqali muhim ijtimoiy masalalarni o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, u o'z asarlarida odamlarning ichki dunyosini va ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishda nozik va murakkab psixologik tasvirlardan foydalanadi. Yusupovning ijodi nafaqat badiiy, balki g'oyaviy jihatdan ham o'z zamonasiga mos keladi. Adabiyotshunoslar, ularning tadqiqotlari va ilmiy ishlari orqali Yusupovning asarlarining ijtimoiy, ma'naviy va badiiy jihatlari keng tahlil qilinmoqda. Yusupovning milliy adabiyotga qo'shgan hissasi, uning xalq orasidagi mashhurligi va ijodining xalqni anglatishi uning haqiqiy adabiy merosini tashkil qiladi. Buning natijasida, Yusupovning asarlari nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng auditoriya tomonidan ham yuqori baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov, I. "Cho'l to'rg'ayi". G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent, 1972-yil.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. "Adabiyotshunoslik lug'ati". Akademnashr, 2013-yil.
3. „Русский Шекспир | Skonchalsya narodniy poet Uzbekistana i Karakalpakstana Ibragim Yusupov“.
4. „УП-3476-сон 25.08.2004. О присвоении звания «Узбекистон Кахрамони»“. lex.uz. Qaraldi: 2022-yil 2-fevral.
5. Hakimniyazov J., Seytbaev I., Ismetov R. "Qoraqalpog'iston hududidagi ziyoratgohlar". «Bilim», 2023-yil. 204-bet.